BUXORO VILOYATI BUXORO SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 10-sentabr 367-2-42-Q/24 Buxoro shahar hokimligi

Buxoro shahrining transport va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-59-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta’minlashga doir talablarni tasdiqlash haqida”gi 482-sonli hamda 2023-yil 18-martdagi “Jamoat transportini moliyalashtirishning yangi tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 116-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, Buxoro viloyati hokimining 2023-yil 27-dekabrdagi 516-2-0-Q/23-sonli qaror talablaridan kelib chiqib, Buxoro viloyati Transport boshqarmasining 2024-yil 12-iyuldagi 01-1136-sonli xatini inobatga olib

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Buxoro viloyati Transport boshqarmasining 2024-yil 12-iyuldagi 01-1136-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-59-sonli qarori bilan tasdiqlangan, 4-ilovasiga asosan, Buxoro shahrining transport va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish Bosh rejasi ishlab chiqilayotganligi inobatga olinsin va yangidan ochilishi rejalashtirilayotgan yo‘lovchi tashish yo‘nalish tarmoqlari *(Jamoat transporti Bosh rejasiga asosan)* tasdiqlansin.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi 482-sonli qarori 2-ilova 671-bandiga muvofiq shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo umumiy foydalaniladigan yo‘nalishlarni ochish, o‘zgartirish va yopish, muntazam tashishni amalga oshirish niyatida bo‘lgan tashuvchilar va fuqarolarning arizalari, xalq deputatlari viloyat, shahar, tuman Kengashlari, hokimliklar, fuqarolarning o‘zini o‘zi

boshqarish organlari va jamoatchilik vakillarining takliflari asosida hokimliklar huzurida tuziladigan komissiyalar tomonidan amalga oshirilishini inobatga olib, yangidan ochilishi rejalashtirilayotgan yo‘lovchi tashish yo‘nalish tarmoqlarining harakat xavfsizligi talablariga muvofiqligini aniqlash bo‘yicha shahar komissiyasining nizomi va tarkibi 1- va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta’minlashga doir talablarni tasdiqlash haqida”gi 482-sonli qarori bilan Komissiya a’zolari o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha ishlab turgan va yangidan ochilayotgan yo‘nalish tarmoqlarning harakat xavfsizligi talablariga muvofiqligini baholash uchun shaxsan javobgar etib belgilanganligi inobatga olinsin.

5. Yangidan ochilishi rejalashtirilayotgan yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarining harakat xavfsizligi talablariga muvofiqligini aniqlash bo‘yicha komissiya (N.Nurov)ga yangidan ochilishi rejalashtirilayotgan yo‘lovchi tashish yo‘nalish tarmoqlarining harakat xavfsizligi talablariga muvofiqligini aniqlash bo‘yicha shahar komissiyasi faoliyatini tasdiqlangan Nizom va qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida amalga oshirish topshirilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari N.Nurov zimmasiga yuklatilsin.

Buxoro shahar hokimi **Q.Tursunov**

Buxoro shahar hokimining
2024-yil 10-sentabrdagi
367-2-42-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Yangidan ochilishi rejalashtirilayotgan yo‘lovchi tashish yo‘nalish tarmoqlarining harakat xavfsizligi talablariga muvofiqligini aniqlash bo‘yicha komissiya to‘g‘risida
NAMUNAVIY NIZOM

I-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Nizom ochilishi rejalashtirilayotgan yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarining harakat xavfsizligi talablariga muvofiqligini aniqlash bo‘yicha komissiyaning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

1.2. Komissiya o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, viloyat, shaharhokimining qarorlari va farmoyishlariga hamda mazkur nizomga va boshqa qonun hujatlariga amal qiladi.

1.3. Komissiyaning faoliyati teng huquqlilik va kollegiallik prinsiplariga asoslanadi.

II-bob. Komissiyaning asosiy vazifalari.

2.1. Quyidagilar komissiyaning vazifalari hisoblanadi:

a) yo‘nalish bo‘yicha yo‘lovchilarning tashishga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash;

b) harakat sxemasini belgilash va avtomobil yo‘li sharoitini o‘rganish hamda yo‘nalishni qonunchilikda belgilangan harakat xavfsizligi talablariga mos bo‘lishini aniqlash va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi 482-sonli qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagajni tashish” QOIDALARIGA qat’iy amal qilish;

d) yo‘nalish bo‘ylab sinov qatnovlarini amalga oshirish;

y) yo‘nalishni ochish yoki ochmaslik yuzasidan asoslangan xulosa tayyorlash.

III-bob. Komissiya tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish.

3.1. Komissiya shahar hokimligi, viloyat transport boshqarmasi, viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi, shahar ichki ishlar organlari fuqaro

muhofazasi boshqarmasi yo‘l harkati xavfsizligi bo‘limi va boshqa manfaatdor tashkilotlar vakillaridan iborat tarkibda tuziladi.

3.2. Komissiya raisi, uning o‘rinbosari, komissiya a’zolaridan iborat tarkibda faoliyat ko‘rsatadi.

3.3. Komissiyaning ishida faol ishtirok etmagan a’zolar komissiyalar tarkibidan chiqarilishi mumkin. Komissiya tarkibidan chiqarilgan xodimning mansubligi bo‘yicha tashkilot boshqa xodimni komissiya a’zoligiga tavsiya etadi. Bunda, Komissiya tarkibi qaytadan tasdiqlanishi shart emas.

3.4. Komissiya a’zolari o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha ishlab turgan va yangidan ochilayotgan yo‘nalish tarmoqlarining harakat xavfsizligi talablariga muvofiqligini baholash uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

3.5. Komissiya majlislari zaruratga qarab o‘tkaziladi. Komissiya majlisi unda Komissiya a’zolarining kamida to‘rtdan uch qismi qatnashganda vakolatli hisoblanadi.

3.6. Komissiya faoliyatini tashkiliy-texnik ta’minlash viloyat transport boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

IV-bob. Yakunlovchi qoida.

4.1. Komissiya qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Buxoro shahar hokimining
2024-yil 10-sentabrdagi
367-2-42-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Yangidan ochilishi rejalashtirilayotgan yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarining harakat xavfsizligi talablariga muvofiqligini aniqlash bo‘yicha viloyat komissiyasi
TARKIBI

N.Nurov	-	Buxoro shahar hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jaligi, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, *komissiya raisi*
M.Mubinov	-	Buxoro viloyati Transport boshqarmasi tenderlarni o‘tkazish bo‘yicha bosh mutaxassisi, *komissiya raisi o‘rinbosari*

A’ZOLARI

M.Ergashev	-	Buxoro shahar ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, yo‘l harkati xavfsizligi bo‘limi boshlig‘i
Lavozimiga ko‘ra	-	Buxoro viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi mas’ul xodimi
Lavozimiga ko‘ra	-	Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi mas’ul xodimi
I.Nizomov	-	Viloyat transport boshqarmasi transportni rivojlantirish bosh mutaxassisi
J.Bobojonov		Shahar hokimligi apparati yetakchi mutaxassisi, *komissiya kotibi*

Izoh: *Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tganda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*

Zaruratga ko‘ra komissiya tarkibiga temir yo‘l, kommunal, aloqa va boshqa sohalar bo‘yicha mas’ul xodimlar jalb etilishi mumkin.